



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 5 - may

205-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining 2022 yil 30 apreldagi “Surxondaryo viloyatidagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlarini belgilash to‘g‘risida” 280-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

Surxondaryo viloyat hokimining 2022 yil 30 apreldagi 280-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyati hokimining 2022 yil 30 apreldagi “Surxondaryo viloyatidagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlar miqdorlarini belgilash to‘g‘risida” 280-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyat hokimining mazkur qarori bilan quyidagilar:

bozorlar va savdo komplekslarida sotiladigan mahsulotlar uchun olinadigan bir martalik yig‘imlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

bozorlar va savdo komplekslarining balansidagi bino va inshootlar hamda yer maydonlaridan foydalanganlik uchun ijara to‘lovlarning miqdorlari 3-ilovaga

muvofiq;

umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar haqi miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Mamayusupov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Muratov), "Angor Markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozori" MChJ va "Angor kelajagi savdo kompleksi" MChJ ma'muriyatlari bilan birgalikda:

bozor va savdo kompleksidan tushadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to'liq undirilishini;

belgilangan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini sotuvchi va xaridorlarga ko'rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tatbiq etilishi ustidan nazorat o'rnatilishini;

sotuvchi va xaridorlarga ko'rinarli joylarga joylashtiriladigan ma'lumotlar davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlasin.

4. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi bozor va savdo kompleksi ma'muriyati tomonidan bozorlarda bir martalik yig'imlar, ko'rsatilgan xizmatlar, foydalanganlik uchun ijara to'lovlari yig'im miqdorlarini ko'paytirish evaziga tushadigan daromadlarni O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda yo'naltirilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining 2021 yil 20 apreldagi 394-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror Angor tuman hokimligi matbuot bo'limi va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumaeva) ommaviy axborot vositalarida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-sayti (angor.uz)ga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Angor hokimining birinchi o'rinbosari O.Mamayusupov zimmasiga yuklansin.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV